

TOVLAMACHILIK JINOYATINI TERGOV QILISHDA GUMON QILINUVCHINI SO'ROQ QILISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Valiyev MuhammadBobur Nodirjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

3-kurs kursanti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish tovlamachilik yoki O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan boshqa jinoyat sifatida malakalanishi kabi masalaga oydinlik kiritish maqsadida so'roq qilish tergov harakatida tergovchi yoki surishtiruvchi tomonidan sodir etilgan jinoyat holatlari yuzasidan gumon qilinuvchiga zarur savollarni to'g'ri va aniq berilishi orqali yechim topish shuningdek, so'roq qilish jarayonida e'tibor berilishi lozim bo'lgan jihatlari haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Tovlamachilik, gumon qilinuvchi, so'roq qilish, ko'rsatuolar, malakalash, tergovchi, surishtiruvchi.*

ОСОБЕННОСТИ ДОПРОСА ПОДОЗРЕВАЕМОГО ПРИ РАССЛЕДОВАНИИ ПРЕСТУПЛЕНИЯ, СВЯЗАННОГО С ВЫМОГАТЕЛЬСТВОМ

Аннотация: *В целях разъяснения такого вопроса, как вымогательство общественно опасного деяния, совершенного по данной статье, или квалификации как иного преступления, предусмотренного Уголовным кодексом Республики Узбекистан, следователь должен правильно и доходчиво задавать необходимые вопросы подозреваемому во время допроса для разрешения некоторых криминальных ситуаций.*

Ключивые слова: *Вымогательство, подозреваемый, следователь, свидетельские показания, квалификация, следователь, дознаватель.*

PECULIARITIES OF INTERROGATING A SUSPECT IN THE INVESTIGATION OF A CRIME OF EXTORTION

Annotation: *In order to clarify such an issue as extortion of a socially dangerous act committed in this article or qualification as another crime provided for by the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan, investigator should ask necessary questions correctly and clearly to suspect during the interrogation for solve some criminal situations.*

Key words: *Extortion, suspect, interrogator, testimony, qualification, investigator, interrogator.*

Davlatni rivojlantirishda iqtisodiyotning o'rnini beqiyosdir, ayniqsa, jamiyat faravonligini ta'minlashda xilma-xil shakldagi mulklarning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, "O'zbekiston Respublikasida barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishi ta'minlanadi.

Xususi mulk daxlsizdir. Mulkdor o'z mol-mulkidan qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari hamda sudning qaroriga asoslanmagan holda mahrum etilishi mumkin emas¹." deb O'zbekiston Respublikasining bosh qomusi bo'lgan Konstitutsiyaning 65-moddasida o'z aksini topganligi bejiz emas.

Yuqoridagilarni inobatga olib, har bir jismoniy va yuridik shaxslarga mol-mulkga ega bo'lish huquqi berilgan hamda ushbu mol-mulklarni himoya qilinishi davlat tomonidan ta'minlanadi. Shuningdek, turli xil shakldagi mol-mulk yoki mol-mulkga bo'lgan huquqni qo'lga kiritishga qaratilgan harakatlar o'z o'rnida, O'zbekiston Respublikasiga ko'ra jinoyat sifatida topilib, uni sodir etgan shaxs yoki shaxslar qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi. Bunda, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining (bundan keyingi o'rinlarda JK) 9-moddasida ya'ni "Shaxs qonunda belgilangan tartibda aybi isbotlangan ijtimoiy xavfli qilmishlari uchungina javobgar bo'ladi²", shuningdek, "Qilmishida jinoyat tarkibining mavjudligi aniqlangan har bir shaxs javobgarlikka tortilishi shart³" ligi O'zbekiston Respublikasi JKning 10-moddasida ko'rsatilgan prinsiplariga tayanib jinoyat sodir etgan shaxs yoki shaxslarga qonuniy chora ko'riladi. O'zbekiston JKning Maxsus qism, uchinchi bo'limda "Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar" uchun taqsimlangan boblar hamda moddalar o'z aksini topgan bo'lib, ushbu maqolamizda "O'zgarlar mol-mukini talon-taroj qilish bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlar"dan biri bo'lgan talonchilik jinoyatini tergov qilishda so'roq qilish tergov harakati bilan bog'liq masalalar ko'riladi.

Tovlamachilik – mulkiy jinoyatlardan biri bo'lib, O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqiga ko'ra, Tovlamachilik – jabrlanuvchi yoki uning yaqin kishilariga zo'rlik ishlatish, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish, yoxud jabrlanuvchi uchun sir saqlanishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilish bilan qo'rqitib o'zgan mulkni yoki mulkiy huquqni topshirishni, mulkiy manfaatlar berishni yoxud mulkiy yo'sindagi harakatlar sodir etishni talab qilish yoxud jabrlanuvchini o'z mulki yoki mulkka bo'lgan huquqini berishga majbur qiladigan sharoitga solib qo'yish demakdir⁴.

Tovlamachilikda faqat moddiy boyliklarga emas, balki mulkiy maqomdagi hujjatlar, qarz (tilxat), merosdan voz kechish to'g'risidagi hujjat, moddiy

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi//<https://lex.uz/uz/docs/-6445145#-6445678>(murojaat vaqti: 30.10.2023 y.)

² O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi//<https://lex.uz/docs/111453#174413>(murojaat vaqti: 30.10.2023 y.)

³ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi//<https://lex.uz/docs/111453#174413>(murojaat vaqti: 30.10.2023 y.)

⁴ Qarang: <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tovlamachilik>(murojaat vaqti: 30.10.2023 y.)

boylklarni olish uchun ishonch qogʻozi, sanatoriylarga yoʻllanma va hokazolar ham tajovuz buyumi boʻlishi mumkin. Tovlamachilik jinoyati tamagirlik motivi bilan sodir qilinadi. Tovlamachilikda mulk zoʻrlik ishlatilib tortib olinmaydi, balki uning egasi tomonidan oʻz ixtiyori bilan beriladi. Shuningdek, Tovlamachilikda jabrlanuvchiga nisbatan qoʻllaniladigan doʻq-poʻpisa, agar jabrlanuvchi tovlamachining talabini bajarmasa, keyinchalik amalga oshirilishi nazarda tutiladi. Koʻpgina hollarda Tovlamachilik shantaj, reket nomi bilan ham ataladi. Lekin shantaj ham, reket ham Tovlamachilikdan farq qiladi. Shantaj – shaxsiy sharmanda qiladigan maʼlumotlarni oshkor etish bilan qoʻrqitib, biron bir harakatni sodir ettirish boʻlsa, reket bir necha shaxslar tomonidan doʻq qilish, zoʻrlik ishlatish va qoʻrqitish orqali amalga oshiriladigan qilmishdir. Tovlamachilik uchun Oʻzbekiston Respublikasi JKning 165-moddasida jinoiy javobgarlik belgilangan.

Ushbu jinoyatni ochishda muhim ahamiyat kasb etadigan tergov harakatlaridan biri sifatida soʻroq qilish desak mubolagʻa boʻlmaydi. Chunki, soʻroq qilish tergov harakati orqali jinoyat ishiga oid zarur maʼlumotlarni olish mumkin boʻladi, bu esa jinoyatni tez ochishga va jinoiyat sodir etgan shaxs yoki shaxslarni aniqlashga hamda topishga imkon yaratadi. Shu sababli, soʻroq qilish tergov harakatining ahamiyatiga toʻxtalishdan oldin ayrim tushunchalarga izoh berish lozimdir.

Soʻroq qilish (huquqda) – shaxsdan koʻrsatuv va tushuntiruv olish vositasi boʻlmish tergov harakati hisoblanadi. Soʻroq qilishni surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud ishlarini yuritish chogʻida esa – sud olib boradi⁵.

Soʻroq qilish tergov harakati Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining (bundan keyingi oʻrinlarda JPK) 97 – 108 moddalariga binoan amalga oshiriladi. Ushbu maqolamizning sarlavhasidan kelib chiqan holda, soʻroq qilish jarayonida alohida eʼtibor albatta, jinoyat ishtirokchisi boʻlgan gumon qilinuvchiga qaratiladi. Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini soʻroq qilish tartibi Oʻzbekiston Respublikasi JPKning 110 – 113 moddalariga koʻra oʻtkaziladi.

Soʻroq qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- gumon qilinuvchi tergov yoki surishtiruv organiga kelishi taʼminlash zarur. Yaʼni, gumon qilinuvchi ushlangan, soʻroq qilish uchun chaqirilgan, qamoqqa olingan yoki majburiy keltiriladi;

- gumon qilinuvchini soʻroq qilish boshlashdan oldin uning himoyachisi yoki vakili chaqiriladi hamda u ishtirokida soʻroq qilinadi;

- surishtiruvchi, tergovchi va sud soʻroq qilish oldidan soʻroq qilinuvchidan uning familiyasi, ismi va otasining ismini, tugʻilgan vaqti (yili, oyi, kuni) va tugʻilgan joyini, yashash joyi va ish joyini, mansabi, mashgʻulot turi, maʼlumoti,

⁵ Qarang: [https://qomus.info/encyclopedia/cat-s/soroq-uz/\(murojaat vaqti: 30.10.2023 y.\)](https://qomus.info/encyclopedia/cat-s/soroq-uz/(murojaat%20vaqti:30.10.2023%20y.))

oilaviy ahvolini, sudlanganligi yoki sudlanmaganligini aniqlashi hamda bu ma'lumotlarni jinoyat ishidagi yoki so'roq qilinuvchining shaxsiy hujjatlaridagi ma'lumotlar bilan solishtirib ko'rishi yoxud so'roq qilinuvchi o'zini kim deb tanishtirgan bo'lsa, aynan o'sha shaxs ekanligiga boshqa yo'llar bilan ishonch hosil qilishi lozim⁶;

- gumon qilinuvchidan so'roq qilish jarayonida qaysi tilda ko'rsatuv berishi so'raladi va o'zbek tilidan boshqa o'zga tilda ko'rsatuv berishini bildirsa qonunda belgilangan tartibda tarjimon ta'minlanadi;

- so'roq qilinuvchi bo'lgan gumon qilinuvchiga O'zbekiston Respublikasi JPKning 48-moddasida nazarda tutilgan huquq va majburiyatlari tushuntirilib, tanishganligi yuzasidan gumon qilinuvchi so'roq qilish bayonnomasiga imzo chekadi;

- shuningdek, gumon qilinuvchining berayotgan ko'rsatuvlari tergovchi yoki surishtiruvchi tomonidan kompyuter texnologiyalari orqali bayonnomaga qayd etilayotganligiga qarshi emasligi so'raladi;

- so'roq jarayoni tegishli rusumdagi videokameraga oliuvchi vositada videotasvirga olinayotganligiga qarshi emasligi ham so'raladi;

- umumiy savollar tugaganidan so'ng gumon qilinuvchidan ish holatlari haqida erkin so'zlab berilishi taklif qilinadi;

- shuni ham inobatga olish lozim ya'ni, kutilayotgan javobga bevosita yoki bilvosita yo'naltirish mazmunidagi savollar ishora qiluvchi savollar deb hisoblanadi. Ishora qiluvchi savollar berish taqiqlanadi⁷.

- gumon qilinuvchi holat haqida erkin so'zlab bergandan keyin, unga ayrim shu jinoyat ishiga doir holatlarga oydinlik kiritish maqsadida qo'shimcha savollar beriladi. Qo'shimcha savollar ish holatidan kelib chiqib to'g'ri va tushunarli qilib berilishi kerak. Amaliyotda ayrim tergovchilar va surishtiruvchilar tomonidan jinoyat ishi yuzasidan ishtirokchilarga to'g'ri savol berish madaniyati shakllanmaganligi natijasida ish holatlariga aniqlik kiritilmay qoladi. Masalan, sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish yuzasidan to'plangan tergovga qadar tekshiruv hujjatlarga ko'ra JKning tegishli moddasi yoki moddalari bilan jinoyat ishi qo'zg'atilgan bo'ladi. Shu sababli, jinoyat yuzasidan barcha holatlarga to'liq oydinlik kiritish uchun so'roq qilish tergov harakati muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni ham nazarda tutish kerakki, so'roq qilish jarayonida quyidagi masalalarni inobatga olib, jinoyat ishiga doir savollarni tergovchi yoki surishtiruvchi tomonidan berish orqali oydinlik kiritish lozim. Sud-tergov

⁶O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protssesual kodeksi// <https://lex.uz/docs/111460#253839>(murojaat vaqti: 30.10.2023 y.)

⁷O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protssesual kodeksi// <https://lex.uz/docs/111460#253839>(murojaat vaqti: 30.10.2023 y.)

amaliyotida tovlamachilikni bosqinchilikdan farqlashda ayrim holatlarga oydinlik kiritilmaganligi natijasida ko'p muammolar kelib chiqmoqda. Shuni takidlash joziki, bosqinchilikda zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish mulkni egallab olish vositasi bo'lsa, tovlamachilikda ushbu qo'rqitish jabrlanuvchining irodasini sindirish va uni tovlamachining talablarini bajarishga majbur etish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, bosqinchilikda o'zganing mol-mulkini egallab olish qo'rqitish bilan bir vaqtda sodir bo'ladi, tovlamachilikda esa aybdor jabrlanuvchining mulkini kelajakda qo'lga kiritadi⁸. Shuningdek, sodir etilgan jinoyat bosqinchilik yoki tovlamachilik ekanligini aniqlash maqsadida so'roq qilish jarayonida, "Zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish natijasida mol-mulkni shu vaqtning o'zida egallab olinganmi yoki ma'lum vaqt o'tgandan so'ngmi?" kabi savol berish maqsadga muvofiqdir.

Jinoyat yuzasidan so'roq ostidagi masalalarga savollar berilib, javob olinganidan so'ng, so'roq qilish tergov harakati yakunlanadi. Tergovchi yoki surishtiruvchi tomonidan kompyuter texnologiyalari orqali qayd etib borilayotgan so'roq qilish bayonnomasi chop etilib, gumon qilinuvchi va uning himoyachisiga tanishib chiqish uchun beriladi hamda tanishishganligi yuzasidan gumon qilinuvchi va uning himoyachisi so'roq qilish tergov harakatini o'tkazganligi va bayonnomani tuzganligi yuzasidan tergovchi yoki surishtiruvchi ham imzo qo'yadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, tergovchi yoki surishtiruvchi jinoyat ishini tergov qilar ekan, o'tkazilayotgan har bir tergov harakatidan samarali foydalanish va ishga doir ma'lumotlarni shuningdek, dalillarni yig'ishga harakat qilish kerak. Ayniqsa, eng ko'p o'tkaziladigan va samarali bo'lgan so'roq qilish tergov harakati orqali zarur va muhim ma'lumotlarni olishga, ish holatlarini tasdig'ini ishtirokchilarning bergan ko'rsatuvlari orqali toptirib yozma dalillari bilan jinoyat ishini mustahkamlashga harakat qilishi lozimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // <https://lex.uz/uz/docs/-6445145#-6445678>.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi // <https://lex.uz/docs/111453#174413>.
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protssesual kodeksi // <https://lex.uz/docs/111460#253839>.

⁸ Qarang: *Rustambayev M.X* O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharxlar. Maxsus qism /M/Rustambayev. – Toshkent: "Yuridik adabiyotlar publish", – 2021. – 292 b.

4. *Rustambayev M.X* O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharxlar. Maxsus qism /M/Rustamboev. – Toshkent: “Yuridik adabiyotlar publish”, – 2021. – 292 b.
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tovlamachilik>.
6. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-s/soroq-uz>.
7. Damirovich, M. R., Ibragimovich, T. I., & Sattarovich, A. U. (2022). The Role Of Spiritual And Educational Events In Promoting The Ideas Of Religious Tolerance And International Health. *Brazilian Journal of Implantology and Health Sciences*, 4(5), 42-47.
8. Sattarovich, A. U. (2023). YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING ASOSIY TAMOILLARI. *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS*, 2(20), 232-234.
9. Abdusalomov, U. S., & Boltaboyev, A. (2020). GENERAL CHARACTERISTICS OF THE MILITARY COMMITTEES OF THE ARMED FORCES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Экономика и социум*, (12 (79)), 10-13.
10. Abdusalomov, U. S. (2023). DEFENDING THE MOTHERLAND IS THE OBLIGATION OF EVERY CHILD. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(1), 6-9.
11. Sattarovich, A. U. (2022). We Should Follow the Example of Our Ancestors in Patriotism. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 6, 24-26.
12. Sattarovich, A. U. (2023). HARBIYLARNING KREATIV SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIMNING AHAMIYATI. *SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 1(12), 96-100.
13. Sattarovich, A. U. B. (2022). «HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASINING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI». *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 10(11), 90-97.
14. Абдусаломов, У. С. (2023). ЗАЩИЩАТЬ РОДИНУ-ОБЯЗАННОСТЬ КАЖДОГО РЕБЕНКА. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 5(5), 13-17.